“O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining 2026 yil, 19 yanvar oyidagi tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida Yunusobod BXMda o‘tkazilgan davra suhbati bayonnomasi.

23.04.2026y. Toshkent shahar

Raislik qiluvchi: “O‘zmilliybank” AJ Yunusobod BXM boshqaruvchisi J.Navruzov.

Qatnashdilar: Yunusobod BXM xodimlari.

K U N T A R T I B I:

“O‘zmilliybank” AJ Yunusobod BXMda korrupsiyani oldini olish, xodimlarda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish va bu borada ularning malakasini oshirish.

So‘zga chiqdi: (J.Navruzov, D.Xasanov va Z.Ismailova)

Davra suhbatini “O‘zmilliybank” AJ Yunusobod BXM boshqaruvchisi Navruzov Jaxongir ochib, tadbir qatnashchilariga kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi. “O‘zmilliybank” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada xodimlarning javobgarligi, shaxsiy pozitsiyasi muhimligi xaqida aytib, xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bu kabi illatga qarshi kurash va uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilayotganligi, bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo‘lagi ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Olib borilayotgan targ‘ibot – tashviqot ishlarining muxumligi xaqida aloxida to‘xtalib, mamlakatimizda korrupsion xuquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurash uchun alohida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilinganligi, uning rahbari boshchiligida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilayotganligini aytib o‘tdi. Bank xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilishlari, tashqi korinish talablariga amal qilish zarurligini hamda ichki mehnat tartibi qoidalariga qat’iy amal qilish kerakligini ham ta’kidlab o’tdilar.

Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash boshqarmasi xodimi Xasanov Davron “O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi va uning bo‘lim BXMda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan bir qator targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi, bu borada bankning Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash boshqarmasi, Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi va Yuridik bo‘lim xodimlari oldingi o‘rinlarda bo‘lishlari zarurligini takidlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi Qarorida 2021 yil 1 oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakillantirish choralarini ko‘rish uchun ma’sul hisoblanadi deb ko‘rsatilganligini aytib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonini takomillashtirish va jadallashtirishga qaratilgan qaror va farmoyishlarining qisqacha mazmun mohiyati haqida to‘xtalib, ular asosida tayyorlangan “O‘zmilliybank” AJning ichki buyruq va talabnomalarida Bankning barcha tarkibiy tuzilmalariga qo‘yilgan vazifalar va ularning yechimlariga tinglovchilarning e’tiborini qaratdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan maqsadlarni samarali amalga oshirish uchun asosiy e’tiborni, bank Rahbariyati tomonidan faoliyatimizda mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish yo‘lida olib borilayotgan say’i-harakatlar zamirida xodimlarning siyosiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaviy harakatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratish turadi.

Yunusobod BXMda xuquqbuzarliklarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijobiy baholagan holda, jamaoda ichki buyruq va nizomlarni buzish holatlarini oldini olishga qaratilagan, xodimlarning bu boradagi bilim va saviya darajasini yanada ko‘tarish yo‘nalishidagi amaliy xarakatlarni uzuluksiz davom ettirishga erishish tavsiya etildi.

Shu borada tarkibiy tuzilmalar xodimlarining roli kattaligiga e’tibor qaratildi. BXM jamoasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xar qanday xuquqbuzarliklarni aniqlash va ularni proqilaktika qilishga qaratilgan takliflarni o‘z vaqtida viloyat boshqaruvchisiga xabar berib turishlari talab qilinadi.

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi BXMlar bilan ishlash sho‘’basi xodimi Ismailova Zamira xodimlar orasida korrupsiyaviy va iqtisodiy jinoyatlarni oldini olishda birdan bir chora – “O‘zmilliybank” AJ boshqaruvi tomonidan berilayotgan topshiriqlarni o‘z vaqtida sifatli bajarish, har bir yo‘nalish bo‘yicha chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarga to‘liq rioya qilinishi lozimligi bilan bog‘liq ekanligini yig‘ilish qatnashchilariga aytib o‘tdi.

Bank sohasida mavjud va sodir etilgan qonunbuzarliklar misolida barcha ishtirokchilarini ogohlikka, o‘z vazifasini vijdonan va sidqidildan bajarishga chaqirdi. Bunda qonunbuzarliklarning kelib chiqish sabablari sifatida bank xodimlarining kasbiy ko‘nikmalarining pastligi, bank jamoalaridagi nosog‘lom muhit, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, guruhbozlik, bank tizimida jinoiy sxemalarning mavjudligi deb tushuntirildi.

Shu bilan birga, Bosh boshqarma komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis yangi qabul qilingan “Bank xodimining axloq-odob kodeksi”, O‘zmilliybank Standart qoidalari talablariga qat’iy amal qilishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo‘l-yo‘riqlar berish, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar haqida uqtirildi.

Kreditlar undirilishi hamda yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashda muammolar kelib chiqishining oldini olish, kredit hujjatlari yig‘ma jildida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda kredit qarzdorliklarini undirish bo‘yicha har bir mas’ul xodimlar tomonidan barcha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi haqida o‘z fikrini bildirdi.

Tadbir so‘nggida BXO ishchi xodimlarini ogohlikka chaqirilib, ularining o‘z xizmat vazifalariga vijdonan yondashishlari zarurligi, har bir mijoz bilan muloqatda axloq-odob doirasidan chetga chiqmagan holda, bank Standart qoidalariga to‘liq rioya qilib xizmat olib borishlari zarurligi, xizmatlar sifati mijozlar jalb qilishning yagona yo‘li ekanligini aytib o‘tib, hozirgi kunda “O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining yuqori ko‘rsatgichlarga erishishi zaminida shu jamoaning katta mehnati turganligini, xodimlarning jipsligi, ko‘p yillardan beri bank sohasida xizmat qilib kelayotgan tajribali xodimlar yosh xodimlarga ustoz-shogird ananalariga amal qilgan holda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishlaridir.

Xodimlar o‘rtasida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi targ‘ibot-tashviqot tadbirlar ta’sirchanligini yanada oshirish maqsadida Prokuratura, Ichki ishlar Boshqarmasi va Adliya Boshqarmasi mutaxassislarining ishtirokini ta’minlash shu bilan birgalikda filial boshqaruvchisi huquqbuzarlikni sodir qilgan xodimlarga nisbatan jazo muqarrarligi hamda o‘z vazifalarini sidqidildan bajarayotganlarlarga bank rahbariyati tomonidan rag‘batlantirish ko‘zga tutilganligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tdi.

QAROR QILADI:

- Yunusobod BXM jamoasida sog‘lom muhitni saqlash, xodimlar o‘rtasida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasizlikni shakllantirish choralari ko‘rilsin.

- Yunusobod BXM jamoasi va bank hududlariga doir vaziyatni o‘rganishni kuchaytirish, bu yo‘nalishda huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishlash ta’minlansin.

- Bank xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilishlari, tashqi korinish talablariga amal qilishlari hamda ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilishlari ta’minlansin

Yig‘ilish raisi **J. Navruzov**

Yig‘ilish kotibi **Z. Ismailova**

Ўзмиллийбанк АЖ Тошкент шаҳар Бош бошқармаси Юнусобод БХМ да 23.04.2026 йилда бўлиб ўтган мажлис иштирокчилари

РЎЙХАТИ

Т/р	Ходим исми, фамилияси	Ходим имзоси
1	Салиджонов Сунгат Ж.	
2.	Эшмаматова Умида	
3.	Гозорозе И.Н	
4.	А.Ф. Комолов	
5	Акбаров Жавохир	
6	Ғуҳтамуродов Бегзод	
7.	Ахмедов Н. Ў	
8	Турсамов Турғунбек	
9	Орипова Нигора	
10	Хайитов Зиёдбек Ойбек ўғли	
11	Исмоилов Вовиқбек	
12	Гиёсиддинов Нодир	
13	Тўйчиев Фахриддин	
14	Акилов Сарвар	
15	Иргашев Камолиддин	
16	Худойқулов Сарвар	
17	Ахмедов Абдул-Азиз	
18	Мирзаахмедов Мирсоид	
19	Абдурахимова Ж.А.	
20	Мавлонжонова Д. Ш	
21	Ходжаева Д.М.	
22	Мухаммадиев А.А	
23	Носиров Муҳаммад Ҳамит	
24	Сойирова Мансура Сайдуллаевна	
25	Абдуллаев Ю. Ш	
26	Каримова Ш. Х	
27.	Хамраев Шерзод	
28.	Каримов Отабек	
29.	Маҳмаров Ғуннат	
30	Хорунова Дилерам	

31	Рахмеева Ихтибар	
32	Мухамедова Сойёра	
33	Усманова Дилобар	
34	Шохиддинова Шахзода	
35	Шерпулова Жадду	
36	Мирходжаева Латофат	
37	Содиқова Т. А	
38	Нурматова М.	
39	Абдуллаева Д	
40.	Маннонова Ш.	
41	Абдурахимова	
42	Сайфутдинова Ж	
43.	Муминов М. Ш.	
44	Кассимова С. Х	
45	Ашурматова Д	